

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**DJUMANOV ASKAR XASANOVICH**

**XO‘JALIK SHIRKATLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMI:  
NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Djumanov Askar Xasanovich**

Хо‘jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomi: nazariya va amaliyot muammolari ..... 3

**Джуманов Аскар Хасанович**

Гражданско-правовой статус хозяйственных товариществ: проблемы теории и практики..... 22

**Djumanov Askar Xasanovich**

Civil-law status of the business partnerships: problems of theory and practice .....43

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**DJUMANOV ASKAR XASANOVICH**

**XO‘JALIK SHIRKATLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMI:  
NAZARIYA VA AMALIYOT MUAMMOLARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu857 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ruzinazarov Shuhrat Nuralievich**

Yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gulyamov Said Saidaxrorovich**

yuridik fanlar doktori, professor

**Erkabayeva Shaxnoza Ikromjonovna**

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi  
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 28-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1289-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 10-sentabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 10-sentabrdagi 53-son reyestr bayonnomasi).

**I.R. Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.Y. Xabibullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**B.K. Xodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda raqamli fuqarolik muomalasi sharoitida ta'sislarining ehtiyojlariga hamda uchinchi shaxslarning manfaatlariga ham javob bera oladigan tadbirkorlik tuzilmalarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Dunyoda aholini tadbirkorlikka kengroq jalb etish, korporativ munosabatlarni uyg'unlashtirish, noinsof tadbirkorlardan filtrlash, korporativ huquqiy normalarni qo'llashni osonlashtirish maqsadida tadbirkorlikni tashkil etish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ushbu ommabop kontekstda xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolarini chuqur tadqiq etish bunday tijorat tashkilotlari bilan bog'liq munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini taqozo etadi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilganda, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari sonining dinamik o'sishi kuzatiladi. Biroq, xo'jalik shirkatlari soni tez sur'atlar bilan kamayib bormoqda. 2024-yil 8-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda atigi bitta to'liq shirkat<sup>1</sup> va 10 ta kommandit shirkat faoliyat ko'rsatmoqda. Umumiy raqamlar xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining ko'payishini ko'rsatadi, ammo bu statistik ma'lumotlarda xo'jalik shirkatlari kamayish tendensiyasini ham ifodalaydi. Shu bilan birga, Germaniyada 1,2 millionga yaqin xo'jalik shirkatlari<sup>2</sup>, AQSHda 4 milliondan<sup>3</sup> ortiq xo'jalik shirkatlari ro'yxatdan o'tgan. Xo'jalik shirkatining fuqarolik-huquqiy maqomi modelini shakllantirishda yuridik fan ikkita asosiy nazariyaga tayangan: yuridik shaxs va shartnoma birlashmasi. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, tadqiqot davomida o'rnatilgan ilmiy- nazariy nuqtai nazardan va xorijiy tajriba asosan xo'jalik shirkatlarning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlash uchun ob'ektiv ehtiyoj paydo bo'ldi.

Biznes modellarini to'g'ri tabaqalash va ularning ichki tuzilishini aniqlash aholini tadbirkorlik faoliyatiga kengroq jalb etish imkonini berishi bilan birga, kreditorlarni himoya qilishning real mexanizmlarini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, tadbirkorlarning huquq va kafolatlarini himoya qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni tashkil etish jarayonida barcha turdagi chegaralarni bartaraf etish hamda kichik biznesni tarkibiy rivojlantirish uchun jozibador shart-sharoitlar yaratish tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi<sup>4</sup>. Bunday fuqarolik-huquqiy kontekstda tadqiqotning asosiy yo'nalishi xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlashdan iborat bo'lib, bu o'z tashkiliy-huquqiy shaklida ifodalangan huquq subyekting pozitsiyasini, ta'sis hujjatlarini,

<sup>1</sup> "O'RTA ZARAFSHON" To'liq shirkat. Davlat ro'yhatdan olingan sana: 12.03.2007 y., Maqomi: aktiv, STIR 300341311. Qayt etish lozimki, ishtirokchilar safida faqat bitta jizmoniy shaxs ro'yhatga olingan.

<sup>2</sup> Buchner, Michael, Eisenmenger, Matthias, Hohlweck, Corinna and Mödinger, Patrizia. "Combined Business Tax Statistics 2016 of the Federal Statistical Office of Germany – A Micro Data Set for Scientific Use" Jahrbücher für Nationalökonomie und Statistik, vol. 243, no. 1, 2023, pp. 109-121. <https://doi.org/10.1515/jbnst-2022-0007>.

<sup>3</sup> Partnership Returns, Tax Year 2021. URL: <https://www.irs.gov/pub/irs-soi/soi-a-copa-id2305.pdf>.

<sup>4</sup> Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 07.02.2017 г. № УП – 4947 // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6.

ro'yxatdan o'tish jarayonini va faoliyatni tugatishni o'z ichiga oladi<sup>5</sup>. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomining o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, ularning kompleks yechimini ta'minlash bo'yicha hali dissertatsiya tadqiqoti olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi (2001) Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi (2001) Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi (2022) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244-sonli Farmoni (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-sonli Qarori (2022) va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mazkur tadqiqot va tadqiqotning nazariy asosi sifatida fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi va korporativ huquq sohasidagi tadqiqotchilarning ishlari asos qilib olingan. Bu borada H.Raxmonqulov, Sh.N. Ruzinazarov, O. Oqyulov, B.B. Samarxo'jaev, S.S. Gulyamov, N.F. Imomov, D.M. Qoraxo'jaeva, U.P. Xolmirzaev, D.R. Valeev, Sh.I. Erkabayeva, M.N. Saidov, J.I. Yo'ldoshev va boshqalar, shuningdek, E.A. Suxanov, Carl Georg Christoph Beseler, Otto von Gierke, A. Lasson, G.F. Shershenevich, Mashkin N.A., K. Pobedonostsev, V.Ya. Maksimov, P.P. Tsitovich, V.V. Rosenberg, V.Yu. Wolf, O.A. Ternova, N.V. Kozlova, V.V. Naden, N.S. Malein, Yu.A. Tikhomirov, I.P. Greshnikov, M.A., E. Klunzinger, I.B. Novitskiy, O.A. Omelchenko, V.M. Khvostov, Friedrich Karl von Savigny, S.I. Bratus, A.A. Slugina, V.V. Zaitsev, A.I. Kaminkoy, Karl Martin Ludwig Enneccerus, Georg Friedrich Puchta, I. Puhan, A.A. Podoprigovala, Alois von Brinz, A.A. Isaev, M. Bartoshek va shu kabi mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari katta e'tiborga loyiqdir<sup>6</sup>.

---

<sup>5</sup> Кодолова А. В. Общая характеристика гражданско-правового статуса юридических лиц, эксплуатирующих экологически особо опасные объекты // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2008. №55. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-grazhdansko-pravovogo-statusa-yuridicheskikh-lits-ekspluatiruyuschih-ekologicheskii-osobo-opasnye-obekty> (дата обращения: 18.03.2023).

<sup>6</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

So'nggi vaqtlarda olib borilgan dissertatsiya tadqiqotlari sifatida V.N. Kurayev<sup>7</sup>, S.S. Gulyamov<sup>8</sup>, D.R. Valeev<sup>9</sup>, Sh.I. Erkabaeva<sup>10</sup>, M.N. Saidov<sup>11</sup> hamda J.I. Yo'ldoshevning ishlarini<sup>12</sup> alohida qayd etilishi lozim.

Yuqoridagi xorijiy va milliy fan vakillari asosan aksiyadorlarning himoyasi muammosi, aksiyadorlik jamiyati instituti sifatida, yuridik shaxslarning mulki, qishloq xo'jaligi kooperativi tuzilmalari faoliyati, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, korporativ javobgarlik kabi masalalarni chuqurroq o'rgananganlar. Biroq, xo'jalik shirkatlarining huquqiy maqomi, ularning yuridik shaxs, korporatsiyalar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlarning huquqiy tabiati bilan bog'liqligi, xorijiy huquqiy tizimlar bilan qiyosiy tahlili kabi masalalar, hamda raqamli aylanma sharoitida institutni rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. V.N. Kurayev o'z dissertatsiyasida faqat Rossiya Federatsiyasining xo'jalik shirkatlari sohasidagi qonun hujjatlarining sintez va tahliliga katta e'tibor bergan, ammo ularning fuqarolik-huquqiy maqomini yuridik shaxs instituti sifatida ko'rib chiqmagan. Sh.I.Erkaboyeva ham o'z dissertatsiyasida xo'jalik shirkatlarning huquqiy layoqati va yuridik shaxs masalalarini xo'jalik shirkatlari nuqtayi nazaridan o'rganmagan. M.N. Saidovning dissertatsiyasida ishtirokchilarning umumiy yig'ilish qarorining huquqiy jihatlarini o'rganagan, biroq xo'jalik shirkatlariga oid qonunchilikdagi bo'shliqlar o'rganilmagan. J.I. Yuldashev aksiyadorlik jamiyatining huquqiy maqomini keng yoritgan, biroq yuridik shaxs konstruksiyasi va xo'jalik shirkatlari bilan solishtirish ochib berilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Kooperatsiya va sheriklik tamoyillari asosida korporativ munosabatlarni takomillashtirish istiqbollari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** rivojlangan g'arb huquqiy tizimlari tajribasini hisobga olgan holda xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomini rivojlantirish bo'yicha xulosalar, takliflar, bayonotlar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari tizimida xo'jalik shirkati tushunchasi, genezisi va o'rnini o'rganish va aniqlash;

xo'jalik shirkatlari huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari va ularning turlarini xorijiy davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasining huquqiy holatini tahlil qilish;

---

<sup>7</sup> Dissertatsiya mavzusi: «Правовое положение хозяйственных товариществ».

<sup>8</sup> Dissertatsiya mavzusi «Развитие законодательства об акционерных обществах в системе корпоративных отношений и проблемы его совершенствования».

<sup>9</sup> Dissertatsiya mavzusi «Проблема защиты прав акционеров в корпоративных конфликтах».

<sup>10</sup> Dissertatsiya mavzusi: «Совершенствование правовых основ ограниченного партнерства в предпринимательской деятельности».

<sup>11</sup> Dissertatsiya mavzusi: «Вопросы по применению и защиты прав участников общества с ограниченной ответственностью».

<sup>12</sup> Dissertatsiya mavzusi: «Акционерные общества – как субъекты гражданского права».

O'zbekistonda xo'jalik shirkatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va raqamli reallik sharoitida ularni takomillashtirish muammolarini aniqlash;

milliy va xorijiy qonun hujjatlarida xo'jalik shirkatini tashkil etish va tugatish tartibini qiyosiy tahlil qilish;

xo'jalik shirkatining boshqaruv organlari va ishtirokchilarining vakolatlarini xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ko'rib chiqish va o'rganish;

xo'jalik shirkatlarida korporativ shartnomaning mohiyati va xususiyatlarini aniqlash va boshqa ta'sis hujjatlari bilan taqqoslash;

xo'jalik shirkatlaridagi korporativ munosabatlarda javobgarlikning huquqiy mohiyatini, subsidiar javobgarlikka tortish tartibini va ishtirokchilarning javobgarlik chegaralarini o'rganish;

xo'jalik shirkatlari ishtirokidagi sud amaliyotining huquqiy tahlilini o'tkazish va ularni takomillashtirish bo'yicha muammolarni aniqlash;

raqamli fuqarolik muomalasi sharoitida xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomini yaxshilash muammolarini hal etishning mumkin bo'lgan mexanizmlari va yo'llarini aniqlash;

xalqaro va ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi huquq tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar, xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomi bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar-olingan.

**Tadqiqotning predmetini** xo'jalik shirkati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek, fuqarolik huquqi fanida mavjud zamonaviy yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar-tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida formal mantiq usuli, tahlil va sintez, formal-huquqiy, qiyosiy-huquqiy usul, huquq va huquqni izohlash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa ilmiy tadqiqot va bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyekti ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish haqidagi qaror qabul qilinganda bunday qaror kreditorlarning huquq va manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi sababli kreditorlarga yozma xabarnoma berishning va bu haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon berishning zarurati yo'qligi asoslangan;

ta'sis shartnomasini imzolagan mahalliy va xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar qonunchilikda belgilangan tadbirkorlik erkinligi tamoyiliga ko'ra venchur fondining muassislari bo'lishi mumkinligi asoslantirilgan;

ma'suliyati cheklangan korporatsiyalarning ta'sis shartnomasi qonunchilik va huquqiy amaliyotda ko'p hollarda bunday korporatsiyalarning ustavini takrorlanishiga olib kelayotganligi sababli uni davlat ro'yxatidan o'tkazish shart emasligi, u korporatsiya ishtirokchilarining ichki hujjati bo'lib qolishi mumkinligi asoslangan;



qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, korporatsiya ta'sischilarining ma'suliyati cheklanganligi tamoyiliga mos kelmasligi sababli, bunday korporativ munosabatlar tizimiga zid keladigan tuzilma ekanligi va huquqiy tizimdan chiqarilishi kerakligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-may kuni 414-sonli qarori bilan tasdiqlangan Investitsion va boshqaruv kompaniyalarining faoliyati to'g'risidagi Nizomga o'zgartirishlar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244-sonli Farmoniga korxonalar ustav kapitalini kamaytirishda kreditorlarni xabardor qilish majburiyatini chiqarib tashlash bo'yicha takliflar kiritilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-sonli Qaroriga qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlarni tashkiliy-huquqiy shakl sifatida hamda ta'sischi shartnomasining majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazilishini chiqarib tashlash taklifi ishlab chiqilgan;

"Xo'jalik shirkatlari rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqish taklif etilgan;

Xorijiy tajribani hisobga olgan holda "Xo'jalik shirkati namunaviy ta'sis shartnomasi"ni ishlab chiqish taklif etilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014-yil 20-iyundagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 262-sonli qaroriga ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori va xo'jalik shirkatining hissa qo'shuvchilarining hissalarini maqomini hal qilish maqsadida o'zgartirishlar kiritish taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ularda mavjud ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy takliflar va tavsiyalar keyingi ilmiy ishlarda, qonun chiqarish faoliyatida, huquqiy amaliyotda, mavjud qonunchilik normalarini talqin qilishda, xo'jalik shirkatlari va yuridik shaxs tuzilmasini tartibga soluvchi sohani rivojlantirishda, shuningdek, fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, bankrotlik, soliq huquqi kabi fanlarning ilmiy-nazariy rivojlanishida manba sifatida hamda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish va amalga oshirish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy aktlar tuzish jarayonida va ularga o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritishda, huquqiy amaliyotni takomillashtirishda va oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ilmiy tadqiqotlar yakunlariga ko'ra, xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi va joriy etildi:

tadbirkorlik subyekti ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish haqidagi qaror qabul qilinganda bunday qaror kreditorlarning huquq va manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi sababli kreditorlarga yozma xabarnoma berishning va bu haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon berishning zarurati yo'qligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 9-noyabrdagi PF-244-sonli Farmonining uchinchi band 2-xatboshi ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilning 2023-yil 15-mart kungi 1-son dalolatnomasi). Ushbu taklif tadbirkorlik subyektlarida ustav kapitalini kamaytirish tartibini aniqlashga xizmat qilgan;

ta'sis shartnomasini imzolagan mahalliy va xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar qonunchilikda belgilangan tadbirkorlik erkinligi tamoyiliga ko'ra venchur fondining muassislari bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-may kuni 414-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya va boshqaruv kompaniyalari faoliyati to'g'risidagi Nizom»ning 17-bandini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilning 2023-yil 15-mart kungi 1-son dalolatnomasi). Ushbu taklif venchur fondi tuzishda mahalliy va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslarning ta'sis shartnomasini imzolash imkoniyatini aniqlashga xizmat qilgan;

ma'suliyati cheklangan jamiyatlarning ta'sis shartnomasi qonunchilik va huquqiy amaliyotda ko'p hollarda bunday korporatsiyalarning ustavini takrorlanishiga olib kelishi sababli uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabining chiqarib tashlash to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 1-bandning b) kichik bandini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 6-sentyabrdagi 11/23-697/8-4-son dalolatnomasi). Ushbu taklif mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun ta'sis shartnomasining majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazilishini chiqarib tashlash orqali qonunchilikdagi tartibni soddalashtirgan;

qo'shimcha ma'suliyatli jamiyat, korporatsiya ta'sischilarining ma'suliyati cheklanganligi tamoyiliga mos kelmasligi sababli bunday tashkiliy-huquqiy shaklda yuridik shaxsni tashkil qilish mumkin emasligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-sonli Qarorining 2-bandini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 6-sentyabrdagi 11/23-697/8-4-son dalolatnomasi). Ushbu taklif qonunchilikdan qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat kabi tuzilmani chiqarib tashlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlarda, shuningdek 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon etilganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha "Qiyosiy korporativ huquq" nomli o'quv qo'llanmasi, jami 14 ta ilmiy ish, jumladan 8 ta ilmiy maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) va 6 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning Kirish qismida (dissertatsiya annotatsiyasida) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikaning fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy etilishi, aprobatsiyasi, natijalarining nashr etilishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi ko'rsatilgan.

Birinchi bob "**Xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomining nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan, unda xo'jalik shirkatlarining genezisi, huquqiy ahamiyati va prinsiplari hamda ularning tijorat tashkilotlari tizimidagi o'rni, turlari va xususiyatlari, xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomi bo'yicha milliy va xorijiy huquqiy doktrinadagi tendensiyalari va ularning amalga oshirilishi masalalari o'rganilgan.

Tadqiqotda bir qator sivilistlarning (Klunzinger E, Raymond Saleilles, M. Wormser, F. Savigny, Puchta, G.F. Shershenevich, H.R. Raxmankulov, Sh.N. Ruzinazarov, O.A. Ternovaya, I.P. Greshnikov, I.B. Noviskiy, O.A. Omelchenko, V.B. Yelyashevich, S.S. Gulyamov, A.A. Slugin, V.V. Zayseva, L. Ennekserus, V.K. Andreev, A.K. Kirpichev, Ye.A. Suxanov, T. Kallibekov, A.Brins, Yu.K. Tolstoy, Demilius, Dshel, Fitting, Bruns, K.Belau, N.V. Kozlova, D.M. Karaxodjayeva, Yu.A. Tixomirov, A.X. Saidov, K. Pobedonossev) fikrlari tahlil qilingan va xo'jalik shirkatining fuqarolik-huquqiy maqomi, uning ahamiyati, tamoyillari, xususiyatlari va fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan tijorat tashkilotlari tizimidagi o'rniga oid xulosalar va takliflar asoslangan.

Dissertatsiyada qayd etilishicha, xo'jalik shirkati shaxslarni birlashtirish va maqsadga erishishning eng qadimiy tadbirkorlik faoliyati shakli hisoblanadi. Bu tashkilot shakli o'zining amaliy ahamiyatini va g'arb huquqiy tizimlaridagi o'rnini yo'qotmagan.

Tadqiqotchining fikricha, shirkat eng qadimiy institut hisoblanadi va asosan Germaniya va Buyuk Britaniya huquqiy tizimlari zamonaviy xo'jalik shirkati tushunchasining asosini qo'ygan. Dissertatsiyada Romano-german va Anglo-sakson huquqiy tizimlari vakillarining, jumladan german, britan va amerika modellarining

xo'jalik shirkatlarini tartibga solish modellari tahlil qilingan va O'zbekistondagi zamonaviy xo'jalik shirkatlarini tartibga solish modeli bilan solishtirilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, xo'jalik shirkatlarini yuridik jihatdan mustahkamlash va jamiyat tomonidan qabul qilinishi, shuningdek xo'jalik shirkatning huquqiy tabiati unga singdirilgan ichki g'oyalarga bog'liq. Xo'jalik shirkatining tijorat tashkilotlari tizimidagi to'g'ri o'rni fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan uning jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishini aks ettiradi. Xo'jalik shirkati doktrinal tamoyillariga sheriklar (hamkorlar) o'rtasidagi halollik, agentlik prinsiplari va to'liq sheriklarning (boshqaruvchi sheriklarning) cheklanmagan javobgarligi kabi kategoriyalar kiritilgan.

Dissertatsiyada ta'kidlanganidek, xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomi qonuniy mustahkamlashning asosiy muammosi xo'jalik shirkatiga yuridik shaxs maqomini berishni aniqlashdir.

Muallif yuridik shaxsning paydo bo'lishi ta'sisчилarning cheklangan javobgarligi haqidagi huquqiy g'oya ta'sirida yuzaga kelganini ta'kidlaydi, bu esa xo'jalik shirkatlarining mohiyati va tamoyillariga ziddir. Ishda yuridik shaxs — bu iqtisodiy talablarga javob berish uchun huquqiy tizimning javobi bo'lib, ta'sisчилarning moddiy javobgarligini minimallashtirishni maqsad qiladi, deb asoslanadi. Shuning uchun xo'jalik shirkatining fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlashda xo'jalik shirkatiga huquqiy layoqatga ega shaxslar birlashmasi sifatida maqom berishni qonunda mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Muallifning fikriga ko'ra, milliy model islom huquqi davri va Rossiya imperiyasi davrida ishlab chiqilgan xo'jalik shirkatlari haqidagi barcha tushunchalarni yo'qotgan. Mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy model samarasiz ishlab chiqilgan va natijada bu yondashuvlar xo'jalik shirkati institutini qo'llashda huquqiy natijalarni bermagan. Bundan tashqari, milliy model barcha tijorat tashkilotlari uchun bir xil qoidalar vektori bo'yicha harakat qilgan, bu esa ularning huquqiy tabiati, muhim prinsiplari, boshqaruv va ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) javobgarligi mohiyatiga mos kelmaydi.

Muallif tomonidan xo'jalik shirkatining huquqiy tabiati ko'rib chiqilganda ilmiy-nazariy ta'rif shakllantirildi: xo'jalik shirkati deb huquqiy layoqatga ega bo'lgan, ta'sisчилarning (ishtirokchilarning) hissalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali) mavjud bo'lgan, yagona firma nomi ostida birlashgan va ta'sisчилar (ishtirokchilar) yoki ularning ayrimlari bunday shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatida shaxsan ishtirok etuvchi birlashmaga aytiladi.

Ikkinchi bobda **"O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha xo'jalik shirkat tashkiliy-huquqiy shaklining sivilistik xususiyatlari"** deb nomlangan bo'lib, unda to'liq shirkatning faoliyat ko'rsatishi va kommandit shirkatning huquqiy holatini tartibga soluvchi qonunchilik, shuningdek, fuqarolik huquqida xo'jalik shirkatning o'rnini aniqlash uchun oddiy shirkat shartnomasi bilan taqqoslab o'rganilgan.

Tadqiqotchi milliy va xorijiy (D.Karaxodjayeva, Livia Benita, T.Turabekov, Klassen, Lipsa, O.Dmitriyev, M.Saidov, Frank Wooldridge, Maxwell, Ye.Kondrat, V.Kovyazin, N.Imomov, B.Samarxodjayev, A.Zaxarkina, I.Puxan, B.Vindsheyd, V.Topildiyev, O.Ok'yulov, D.Korotenko) olimlarning ilmiy nuqtayi nazarlarini tahlil

qilib, to'liq va kommandit shirkatlar, shuningdek birgalikdagi faoliyat shartnomasi bo'yicha ilmiy-nazariy muammolar, qonunchilik va huquqiy amaliyotga oid muallifning takliflari va tavsiyalarini ishlab chiqqan.

Dissertant xorij huquqiy tizimlarining ilg'or tajribasi asosida xo'jalik shirkatini tashkil etish, boshqarish va tugatish tartibini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlarini chuqur huquqiy tahlil qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotida xo'jalik shirkatining asosiy tamoyillari va g'oyalari asosida ustav kapitaliga oldindan hissa kiritish tartibi, agar u tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazgunga qadar amalga oshirsa uchinchi shaxslarga nisbatan shirkatga huquqiy maqom berish shartlari, xo'jalik shirkatining boshqaruv organi sifatida ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chiqarib tashlash masalalari, yagona ochiq axborot portalida vakolatli sheriklar vakolatlarini ko'rsatishning ahamiyati tizimli ravishda huquqiy tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o'rganish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shirkatning ijroiya organining alohida ro'yxatga olinishi shirkatning tamoyillariga zid bo'lganligi uchun bunday tizimni chiqarib tashlash zarur.

Muallifning ta'kidlashicha, tugatish jarayonida soliq tekshiruvining uzoq davom etishi va soliq organi tomonidan harakatlar noaniqligi shirkatni foydalanish uchun noqulay qiladi. Dissertatsiya mantiqiy nemis modeliga asoslangan shirkatni tugatish tartibini qo'llash muhimligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyada muallif fikricha, huquqiy asosi yo'qligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining pozitsiyasi sababli qonunchilik ishtirokchilarni umumiy yig'ilish qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqidan mahrum qiladi. Oliy sud umumiy yig'ilish qarori bitim hisoblanmasligi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq bitimlarning haqiqiy emasligi qoidalari qo'llanilmasligini ko'rsatadi. Dissertant mantiqiy jihatdan ishtirokchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish zaruratini hisobga olgan holda umumiy yig'ilish qarorlarining huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish muhimligini asoslaydi.

Dissertant, qonunda kommandit shirkat hissa qo'shuvchilarining huquqlari cheklangan ekanligini ta'kidlaydi. Solishtirma tahlil natijalari ishtirokchilarning monitoring huquqi cheklanganligini (sud orqali shirkatning moliyaviy ahvoli haqida ma'lumot so'rash) va to'liq shirkatning harakatlariga e'tiroz bildirish huquqi cheklanganligini ko'rsatadi. Muallif qonunchilikka ishtirokchilarga nazorat va monitoring huquqlarini beruvchi normani kiritish g'oyasini taqdim etadi.

Dissertant qonunchilikning "cheklangan sheriklik", "venchur fondi" va "boshqaruv kompaniyalari" institutlarini joriy etishdagi samarasiz urinishlarini konseptual va tizimli ravishda o'rganadi. Ishda kommandit sheriklik asosida venchur moliyalashtirishni rivojlantirish taklifi asoslangan. Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun, muallif sheriklikka nisbatan huquqiy konsepsiyani o'zgartirish, ishtirokchilarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatish huquqlarini kengaytirish, Britaniya modelini rivojlantirish va huquqiy amaliyotni qonunchilik hujjatlari bilan uyg'unlashtirishni taklif qiladi.

Tadqiqotda muallif xo'jalik shirkatini tugatish jarayonini tubdan o'zgartirishni taklif qiladi. Jumladan, shirkatni tarqatish tushunchasini joriy qilish, to'liq sheriklar kreditorlarga qarzlarni to'lashi taklif qilingan. Ro'yxatga oluvchi organ shirkatning tugatilishi va tarqatilishini tekshirmaydi, faqat shirkatni

ro'yxatdan chiqarishni va uni tugatishni qayd etadi. Bunda, kreditorlarning da'vo qilish huquqi shirkat tugatilganidan keyin da'vo muddati davomida saqlanib qoladi. Muallif bu pozitsiyani german modeli va to'liq shirkatlarning cheklanmagan javobgarligi tamoyili asosida asoslaydi.

Dissertatsiya tadqiqoti kommandit shirkat hissa qo'shuvchilarining huquqiy maqommaqomini kontseptual jihatdan o'rganadi. Huquqiy tahlilga ko'ra hissa qo'shuvchilar qo'shilgan va undan chiqqan taqdirda ta'sis shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish tartibini chiqarib tashlash zarur. Bundan tashqari, huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqqan holda, hissa qo'shuvchi maqommaqomini faqat hissa kiritish guvohnomasi asosida tan olish muhim ahamiyatga ega.

Muallif oddiy shirkat shartnomasining huquqiy mohiyatini izchil ravishda ochib beradi. Huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib, dissertant tadbirkorlik oddiy shirkatining tomonlar doirasini kengaytirib uni barcha jismoniy va yuridik shaxslar tuzishi mumkinligini taklif qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Ta'sis shartnomasi xo'jalik shirkat ishtirokchilari birlashishining huquqiy shakli sifatida: qiyosiy va amaliy jihat”** deb nomlanadi. Unda ta'sis shartnomasining xo'jalik shirkatlari ishtirokchilari faoliyatini tashkil etishdagi o'rni va huquqiy asoslari, shuningdek, xo'jalik shirkatlarining ta'sis shartnomasi tomonlarining huquqiy maqomi va javobgarligi tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishida ilmiy-nazariy manbalar, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini solishtirish orqali olib borilgan tizimli tahlil asosida muallif raqamli fuqarolik muomalasi sharoitida xo'jalik shirkatlarini tashkil etish va faoliyatini huquqiy tartibga solish alohida ahamiyatga ega ekanini asoslab beradi, bu amaliyotdagi muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Tadqiqotchi milliy va xorijiy (Sh.Ruzinazarov, Griffin, Weiler, Susan E. Woodward, D.Stepanov, J.Yuldashev, X.Raxmankulov, D.Karaxodjayeva, Sh.Xujayev, V.Topildiyev, Ya.Gessen, N.Kozlova, S.Ferdinant, G.Vechkanov, O.Makarova, A.Smit, Dernburg, G.Shershenevich, S.Gulyamov, L.Burxanova) olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy nuqtai nazarlarini tahlil qiladi va ularning fikrlari asosida ta'sis shartnomasi, ishtirokchilarning huquqiy maqomi va xo'jalik shirkatlarini huquqiy tartibga solishning kelajakdagi istiqbollari bo'yicha muallifning taklif va tavsiyalarini ishlab chiqadi.

Muallif ta'sis shartnomasi institutining umumiy doktrinal tushunchalari va tarixiy shartlari borligini, biroq bu xo'jalik shirkati institutiga sun'iy ravishda kiritilganligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, bir ishtirokchi bilan ta'sis shartnomasi mavjudligi shartnoma tuzish prinsiplariga zid va bunda mas'uliyati cheklangan korporasiya bilan qonun chiqaruvchining bir xil pozitsiyasi kuzatiladi.

Dissertatsiyada "korporativ shartnoma" institutini korporativ munosabatlarni tartibga solishning qo'shimcha vositasi sifatida joriy etishning doktrinal masalalari o'rganiladi. Muallif ta'sis shartnomasi bilan birga qo'shimcha kelishuv sifatida mazkur vositani qonunchilikka kiritish imkoniyatini e'tirof etadi.

Ishda ishtirokchilarning huquqiy maqomi, ishtirokchilarning malakasi va kreditorlarga ikkilamchi murojaat qilish prinsipi alohida ta'kidlanadi. Muallif xo'jalik shirkatlari davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan oldin faoliyat yuritisa va

faoliyat olib borsa, shirkat ishtirokchilariga ro'yxatdan o'tkazishdan oldingi huquqiy maqomi berishni taklif qiladi. Qonunchilikning ishtirokchining maqomdoirasini cheklash bo'yicha pozitsiyasi, ya'ni faqat yakka tartibdagi tadbirkor va tijorat tashkilotigina shirkat ishtirokchisi maqomini olish huquqiga ega ekanligi tizimli va mantiqiy tanqid qilinadi. Dissertant aynan raqamli texnologiyalar ishtirokchilarning malakasiga oid talablarni chiqarib tashlashga yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Muallif xorijiy huquqiy tizimlarning ilg'or tajribasi asosida va sheriklarning ishonch tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash uchun "raqobatni ta'qiqlash" institutini shirkatga joriy etishning kontseptual ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyati sheriklarning xo'jalik shirkati faoliyati sifatida shunga o'xshash faoliyat bilan shug'ullanish huquqlariga cheklovlar qo'yish imkonini beradi.

Xo'jalik shirkatini huquqiy tartibga solishda asosiy rollardan biri shirkatning o'zining majburiyatlari bo'yicha uning ishtirokchilarining javobgarligi hisoblanadi. Yuridik shaxs kontseptsiyasidan huquqiy layoqatga ega birlashmaga o'tishini inobatga olgan holda, kreditorlarga shirkat tarqatilgandan keyin da'vo muddati davomida murojaat qilish huquqini berish muhim. Dissertant tugatish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni taklif qiladi, bunda tugatuvchilar ma'lumotlar tizimida to'liq sheriklar ro'yxati aloqa ma'lumotlari bilan ko'rsatilishi kerak.

Dissertatsiyada xo'jalik shirkatining o'z kontragentlarini Amerika tajribasi asosida raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumot berish masalasi alohida ko'rib chiqiladi. Xo'jalik shirkatini ro'yxatdan o'tkazish va keyinchalik qayta ro'yxatdan o'tkazish paytida kontragentlarni ishtirokchilarning vakolatlari, ya'ni agentlar (ishtirokchilar) vakillik huquqi to'g'risida xabardor qilish uchun resurslarni tizimlashtirish muhimdir.

Muallif, huquqiy amaliyotda ba'zan soxta ta'sis hujjatlari bilan bog'liq sud ishlari uchrashini qayd etadi. Muammoli masalalarni hal qilish uchun smart-shartnomalar texnologiyasidan foydalanish taklif etiladi. Bundan tashqari, aqli shartnomalar tizimi asosida "Smart ta'sis shartnomasi"ni joriy etish noqonuniy ta'sis shartnomalari tuzilishining oldini olishga yordam beradi va ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlar topshirilgan paytda ta'sis hujjatini qalbakilashtirishga uringan insofsiz shaxslardan himoya qiladi, shuningdek shartnoma shartlari bajarilishini ta'minlaydi.

## XULOSA

Xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomi masalalarini o'rganish va tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1. Dissertatsiyada xo'jalik shirkati tadbirkorlik huquqining noyob va zarur sub'ekti ekanligi haqidagi fuqarolik huquqiy ta'rifi asoslab berilgan. Xo'jalik shirkati ko'p asrlik tarixga ega tuzilma sifatida fuqarolik muamolasida o'ziga xos

maqsadi, tamoyillari, ichki elementlari va uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda harakat qilish xususiyatlariga ega. Xo'jalik shirkatlari kompleks institut sifatida shartnomaviy birlashmalardan mas'uliyati cheklangan korporatsiyalarga aylanishdagi huquqiy evolyutsiya jarayonidagi fenomen va zanjir bo'lib, shu bilan birga Rim huquqi bo'yicha shirkatning barcha muhim elementlarini saqlab qolgan. Ishtirokchilarning fuqarolik muomalasidagi ishonch tamoyillariga asoslangan tashkil etish, boshqarish va tugatishning oddiy institutlarini o'z ichiga olgan xo'jalik shirkatlari kontsepsiyasi g'arbiy Yevropa huquqiy tizimlarida keng qo'llanila boshlandi. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik subektlarining boshqa shakllariga nisbatan xo'jalik shirkatlarining fuqarolik-huquqiy maqomini to'g'ri aniqlash bunday modelni keng qo'llashga turtki bergan.

2. Dissertatsiyada xo'jalik shirkatlarining evolyutsiyasidagi ilmiy-huquqiy masalalar O'zbekistonda fuqarolik huquqi instituti sifatida mantiqan ochib berilgan. Xususan, zamonaviy xo'jalik shirkatlari paydo bo'lishidan oldin bunday birlashmalar shartnoma tamoyillari asosida mavjud bo'lganligi qayd etilgan. "Yuridik shaxs" tushunchasini sun'iy ravishda yaratgan mas'uliyati cheklangan kontsepsiyasini ilgari surish davrida bunday shartnomaviy birlashma ikki yo'nalishdan birini qabul qilishi kerak edi: 1) birlashmani yuridik shaxs sifatida tan olish; 2) birlashmaga yuridik shaxs maqomini tan olmaslik. Shirkatning yuridik shaxs maqomini tan olgan fransuz modeli Rossiya qonunchiligiga normalarni amalga oshirish orqali milliy tizimga ta'sir ko'rsatdi. Nemis modeli shirkatning dastlabki tamoyillarini saqlab qolishga qaror qildi va mas'uliyati cheklangan elementi yo'qligi sababli unga nisbatan yuridik shaxs kontsepsiyasini qabul qilmadi. Dissertatsiya xo'jalik shirkatiga nisbatan yuridik shaxsning tamoyillarini qo'llash noto'g'ri degan xulosaga keldi.

3. Huquqiy terminologik apparat nuqtai nazaridan dissertatsiyada muallif ilmiy muomalaga "yagona firma nomi ostida huquqiy layoqati bor birlashma" atamasini kiritishni taklif qiladi, bu birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shaxslar birlashmasi deb tushuniladi, ular hamma uchun umumiy bo'lgan bitta firma nomini oladi va fuqarolik muomalasida ular o'zlarini bitta butun birlashma sifatida belgilaydilar.

4. Dissertatsiyada xo'jalik shirkatlarining faoliyati to'g'risidagi konstruktiv fikrlar, xususan, ro'yxatga olish tartibi, fuqarolik muomalasida ro'yxatdan o'tishdan oldin yuridik shaxsni tan olish, ishtirokchilarning huquqiy maqomi va malaka talablari, ishlarni yuritish mexanizmlari, ijro etuvchi organ va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi faoliyatining huquqiy asoslari, kreditorlarni himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi, shu jumladan xabar berish mexanizmlari va uchinchi shaxslarga xo'jalik shirkati agentlarining vakolatlari to'g'risida majburiy e'lon berish, xo'jalik shirkatining faoliyatini tugatish masalalari asoslantirilgan.

5. Ishda xo'jalik shirkatlarini ro'yxatdan o'tkazish institutini qayta ko'rib chiqish muhimligi haqida tahlil qilinadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab xo'jalik shirkatini tashkil etish uning doktrinal asoslari va ilmiy-nazariy asoslariga zid ekanligi asoslantirilgan. Xo'jalik shirkati shartnomaviy birlashma ekanligini va faoliyatning amalga oshirilishi uning amalda tashkil etilganini anglatadi. Ushbu tadqiqot yondashuvi xo'jalik shirkatining shartnomaviy



birlashmasi tamoyillari va g'oyasiga asoslanadi va bu asosli deb hisoblanadi. Milliy modelda ro'yxatdan o'tish instituti huquqiy munosabatlar subyektini ro'yxatdan o'tkazish vositasi emas, balki ruxsat berish mexanizmi sifatida qaraladi.

6. O'zining moddiy-huquqiy rejimiga ko'ra, ustav kapitalining minimal miqdori va ustav fondini kamaytirish paytida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish uchun kreditorlarga xabar berish, ishtirokchilarning mas'uliyati cheklangan tashkilotga nisbatan davlatning majburiy vositasidir. Ishda ta'kidlanishicha, ustav fondining minimal miqdorini belgilash va milliy modelda ustav fondini kamaytirishda kreditorlarni xabardor qilish xo'jalik shirkatining yagona doktrinaviy tamoyillariga zid keladi va ushbu institutni to'liq sheriklarning cheklanmagan javobgarligi sababli chiqarib tashlash taklif etiladi.

7. Dissertatsiya oliy boshqaruv organining ishlashi muammosini ochib beradi. Boshqaruv organlari mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga xos ekanligi, qonunchilik esa xo'jalik jamiyati va xo'jalik shirkatlariga nisbatan yagona tartibga solish mexanizmlarini qo'llaganligi alohida qayd etilgan. Bundan tashqari, ishtirokchilar umumiy yig'ilish qarorlariga nisbatan bitim maqomini tan olmaslik to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi oliy sudining pozitsiyasi va normativ-huquqiy bazasi yo'qligi sababli ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qaroriga shikoyat qilish huquqidan mahrum etilganligi qayd etildi. Dissertatsiya ishi doirasida ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini boshqaruv organi sifatida chiqarib tashlash va ishtirokchilarga dispozitivlik sharoitida munosabatlarni tartibga solishga ruxsat berish taklif qilindi.

8. Ishda xo'jalik shirkatining tarafi "har bir ishtirokchi bir-birining agenti" agentlik tamoyillariga asoslanishi qonun hujjatlarida hisobga olinmasligi alohida qayd etilgan. Soliq huquqi ta'siri ostida har bir xo'jalik shirkati ijro etuvchi organga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, birlashma nomidan harakatlar amalga oshirilgan taqdirda kreditorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi tartibga solinmagan. Ko'rinib turibdiki, ushbu masalalar fuqarolik muomalasidagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin va ushbu masalani hal qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish kerak. Ushbu mexanizm Amerika amaliyotida keng qo'llaniladi, tadqiqot doirasida to'liq sheriklar va ularning vakolatlari to'g'risida majburiy nashr etish institutini joriy etish taklif etiladi.

9. Huquqiy rejimiga ko'ra, xo'jalik shirkatini fuqarolik-huquqiy tugatish instituti yagona qoidalardan foydalangan holda mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan maqomi bo'yicha teng ravishda ko'rib chiqilmoqda. Yuridik shaxs maqomida shirkat majburiyatlarini to'liq tugatishi kreditorlar tomonidan shirkat ishtirokchilariga talablar qo'yishning mumkin emasligiga olib keladi. Ishtirokchilarning cheksiz javobgarligi postulati tugatish tamoyillariga ziddir. Ushbu masala alohida qayd etiladi hamda yuridik va texnik jihatdan emas, balki xo'jalik shirkatini tugatish kontsepsiyasini ikki bosqichga o'zgartirish orqali hal qilish taklif etiladi. Ya'ni, shirkatni tarqatib yuborish shirkat faoliyatini tugatishni anglatadi va tugatish aktivlarini sotish va majburiyatlarni bajarishga olib keladi, keyinchalik esa u reestrndan chiqarib tashlanadi.

10. Dissertatsiyada xo'jalik shirkati va oddiy shirkat shartnomasi ishtirokchilariga nisbatan malaka belgilarini o'rnatishda faqat yakka tartibdagi

tadbirkorlar va tijorat tashkilotlari ishtirok etishi mumkinligi to'g'risida nazariy asoslarning yo'qligi tasdiqlandi. Bunday tartib tadbirkorlik faoliyatiga konstitutsiyaviy huquqni amalda cheklashni anglatadi, bu esa jismoniy shaxsning xo'jalik shirkatlarida faoliyatini boshlashi uchun biznesni ro'yxatdan o'tkazishning ikki bosqichini amalga oshirishga majbur qiladi.

11. Dissertatsiyada kommandit shirkati buyuk dengiz kashfiyotlari davridan beri venchur kapitalini moliyalashtirishning eng qadimgi institutlaridan biri ekanligi tasdiqlangan. Venchur moliyalashtirish va aktivlarni boshqarish institutini joriy etish bo'yicha qonunchilik harakatlari tahlil qilinadi. Dissertatsiya tadqiqotida Britaniyaning shirkat modeli tajribasini hisobga olgan holda kommandit shirkat asosida venchur moliyalashtirishni rivojlantirish masalasi o'rganildi.

12. Dissertatsiyada ta'sis shartnomasining huquqiy mohiyati va uni qo'llash mexanizmlari ko'rib chiqildi. Qo'llash davomiyligini, tomonlarning umumiylikini, bitta ishtirokchining bo'lish holatini o'rganishga asoslangan tadqiqot natijalari ta'sis shartnomasining ahamiyati haqida gapiradi. Bundan tashqari, ta'sis shartnomasi bilan bir qatorda korporativ shartnomaning qo'llanilishi to'g'risida ilmiy pozitsiya asoslanadi.

## **II. Qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi taklif va xulosalar:**

1. Dissertantning kontseptual nuqtai nazariga ko'ra, tijorat tashkilotlari tizimida xo'jalik shirkatining mavqeini aniqlash masalasi ko'rib chiqilmoqda. Xo'jalik shirkatining huquqiy layoqatga ega birlashma sifatida ko'rib chiqilishi va uning quyidagi tarkibiy elementlarini tubdan o'zgartirish kerakligi tahlil qilinmoqda: ro'yxatdan o'tish, tugatish, boshqaruv organlari, ishtirokchilarning malaka belgilari, ta'sis shartnomasi.

2. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

"Muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan huquqiy layoqatga ega birlashma xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar".

3. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etildi:

